



**“TARIXIY PARALLELLAR” METODINI MATEMATIKA O’QITISHDA
QO’LLASHNING SAMARADORLIGI
THE EFFECTIVENESS OF USING THE “HISTORICAL PARALLELS”
METHOD IN TEACHING MATHEMATICS
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА «ИСТОРИЧЕСКИЕ
ПАРАЛЛЕЛИ» В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ**

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

*Farg’ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa
doktori (PhD)*

Tojaliyeva Sohiba Abdurasul qizi

*Farg’ona davlat universiteti, amaliy matematika yo’nalishi 2208-guruh
talabasi*

Annotatsiya. Bu maqola orqali men tarix faniga oid bo’lgan “tarixiy parallellar” metodi haqida, bu metodni matematika o’qitishda qanday qilib foydalanish mumkinligi haqida o’z fikrlarimni bildiraman. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlarini keltiraman.

Kalit so’zlar. “tarixiy parallellar” metodi, pifagor teoremasi, tarix va matematika bog’liqligi.

Abstract. In this article, I will express my thoughts on the method of “historical parallels” in history, and how this method can be used in teaching mathematics. I will present the positive and negative aspects of this method.

Keywords. the method of “historical parallels”, the Pythagorean theorem, the relationship between history and mathematics.

Аннотация. В этой статье я выскажу свои соображения о методе «исторических параллелей» в истории и о том, как этот метод может быть использован в преподавании математики. Я представлю положительные и отрицательные стороны этого метода-.



Ключевые слова: метод «исторических параллелей», теорема Пифагора, взаимосвязь истории и математики.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va hayot bilan bog'lashga o'rgatish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Matematika fanida ko'plab tushunchalar o'quvchilarga mavhum ko'rinadi. Shu sababli matematika darslarida tarixiy yondashuvni qo'llash, ya'ni o'tmishdagi ilmiy g'oyalarni bugungi kun texnologiyalari bilan bog'lab o'qitish katta ahamiyatga ega.

“Tarixiy parallellar” metodi o'quvchilarga matematik tushunchalarning tarixiy ildizlarini ochib berish, ularning zamonaviy hayotdagi o'rnini ko'rsatish, shuningdek, o'tmish bilan bugun o'rtasida ma'naviy, mantiqiy va ilmiy bog'liqlikni anglash imkonini beradi. Ushbu metod matematika o'qitishda fanlararo integratsiyani ta'minlayd, darslarni tahliliy ruhda o'tkazish imkonini yaratadi.


Asosiy qism. “Tarixiy parallellar” metodi-bu tarixiy voqea, shaxs yoki ilmiy g'oyani zamonaviy holatlar bilan taqqoslash asosida o'rganish metodidir. Bu metod orqali o'quvchi tarixiy voqealarni zamonaviy hayot bilan bog'laydi, o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash oshadi. O'quvchilar “O'tmishdagi bo'lgan voqealar zamonaviy jamiyatda qanday takrorlanmoqda? “ savoliga javob izlashadi. Dars munozara va fikrlarga boy o'tadi va qiziqarli bo'ladi.

Masalan:

1. Xonliklar davrida ichki raqobat-Bugungi iqtisodiy raqobat
2. Jadidchilik harakati-Hozirgi raqamli savodxonlik

Bu metodning ham albatta kamchilik tomoni ham bor. Ya'ni ba'zi mavzular uchun zamonaviy parallel topish qiyin bo'lishi mumkin.

Quyida Jadidchilik harakati mavzusiga ushbu metodni qo'llaymiz. Bu mavzuga parallel qilib Zamonaviy ta'lim islohotlarini olishimiz mumkin.



Bu kabi jadvallarni ko'plab davom ettirish mumkin. Hammasi o'quvchining qanchalik keng fikrlashiga va tarixni yaxshi bilishiga bog'liq.

Endi bu metodni matematikada qo'llashni ko'rib o'tamiz. "Tarixiy parallellar" metodi matematika darsida tarixiy voqealar, olimlarning kashfiyotlari yoki matematik g'oyalarni bugungi zamon texnologiyalari, ilmiy yutuqlar yoki hayotiy muammolar bilan taqqoslab o'rganishga yordam beradi. Ya'ni o'quvchi faqat formulani emas, uning kelib chiqishi, zamonaviy ko'rinishi va amaliy ahamiyatini tushunadi. Bu esa eslab qolishga va hayotga formulani tatbiq qilishga yordam beradi.

Masalan Pifagor teoremasi mavzusini olaylik. Bu mavzuga zamonaviy parallel sifatida GPS tizimlarini tanlasak bo'ladi. Qadimda Pifagor teoremasidan uchburchakning tomonlarini o'lchash orqali yer o'lchashgan. Hozir GPS sun'iy yo'ldoshlar yordamida shu masalani kompyuter orqali hal qiladi. Lekin asosiy g'oya o'zgarmagan, ya'ni, masofa topish uchun geometrik o'lchamlar.



Asosiy
g'oya

- To'g'ri burchakli uchburchakdagi tomonlar munosabati

O'tmish
da
qo'llani
shi

- Yer o'lchash, piramida balandligini topish

Hozirgi
qo'llani
shi

- GPS masofa hisoblash, 3D o'lchovlar

Xulosa. “Tarixiy parallellar” metodini matematika o'qitishda qo'llash o'quvchilarni nafaqat matematik bilimga ega bo'lishi, balki bu bilimning kelib chiqishi, rivoji va bugungi kundagi o'rnini tushunishga o'rgatadi. Ushbu metod o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tahliliy fikrlash qobiliyatini, fanlararo bog'liqlikni anglashni rivojlantiradi.

Savollar:

1. “Tarixiy parallellar” metodi qanday metod?
2. Temuriylar davri mavzusiga zamonaviy parallel toping.
3. Ushbu metodning qanday ijobiy va salbiy tomonlarini bilasiz?
4. Metodni matematikada qo'llash qanchalik to'g'ri deb o'ylaysiz?
5. Sizningcha matematika fanining istalgan mavzusiga zamonaviy va tarixiy parallel topish mumkinmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmurodov A. “Matematika ta'limida innovatsion metodlar”, Toshkent 2022
2. To'rayeva N. “Matematika o'qitishda tarixiylik tamoyili”, Pedagogika jurnali, 2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori, “Ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”, 2018
4. Rahimqoriyev A, To'xtaxo'jayeva M. 8-sinf Geometriya darsligi, O'zbekiston, 2019